

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**



**QASHQADARYO VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI  
METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**  
2023-yil 23-iyun

**“Amaliy va ijtimoiy fanlarning boshqa fanlar bilan integratsiyasi: dolzarb muammolar,  
yangi yondashuvlar, innovatsiyalar va istiqbollar”  
mavzusidagi Respublika Ilmiy-amaliy konferensiya**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ЦЕНТР ПО ОБУЧЕНИЮ НОВЫМ МЕТОДИКАМ ПЕДАГОГОВ  
КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**  
23 июня 2023 год

**Республиканская научно-практическая конференция по теме  
”Интеграция прикладных и социальных наук с другими науками: актуальные  
проблемы, новые подходы, инновации и перспективы”**

**KASHKADARYA REGIONAL NATIONAL CENTER OF TRAINING  
PEDAGOGUES IN NEW METHODOLOGIES**  
June 23, 2023

**Republican scientific and practical conference on the topic  
"Integration of Applied and social sciences with other disciplines: current problems, new  
approaches, innovations and perspectives”**

**Qarshi-2023**

Ushbu to'plam "Amaliy va ijtimoiy fanlarning boshqa fanlar bilan integratsiyasi: dolzarb muammolar, yangi yondashuvlar, innovatsiyalar va istiqbollar" deb nomlanib, bu to'plamda bugungi kunda Amaliy va ijtimoiy fanlarning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish va mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, dolzarb muammolar yechimiga bag'ishlab ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar ishlab chiqish masalalariga doir bir qator maqola va tezislar kiritilgan.

#### **Mas'ul muharrir:**

**A. Mallayev** - *Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent*

#### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**O. Ibragimov** - *Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Amaliy va ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi" kafedrasini mudiri*

#### **Tahrir hay'ati:**

- |                       |   |
|-----------------------|---|
| <b>D. Komolov</b>     | - <i>tarix fanlari doktori, professor.</i>                          |
| <b>M. Shodiyeva</b>   | - <i>pedagogika fanlari doktori, professor v/b</i>                  |
| <b>O. Norov</b>       | - <i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent</i>  |
| <b>T. Rasulov</b>     | - <i>pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.</i>                       |
| <b>L. Umarov</b>      | - <i>pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</i> |
| <b>A. Shoimov</b>     | - <i>katta o'qituvchi</i>   |
| <b>G. Xasanova</b>    | - <i>katta o'qituvchi</i>   |
| <b>I. Batashov</b>    | - <i>katta o'qituvchi</i>   |
| <b>Sh. Eshmurodov</b> | - <i>o'qituvchi</i>   |

#### **Taqrizchilar:**

- |                       |   |
|-----------------------|---|
| <b>A. Rahmonqulov</b> | - <i>Qashqadaryo VPYMO'M markazi dotsenti</i> |
| <b>A. Pardayev</b>    | - <i>QDU tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>   |

Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferentsiya materiallar to'plami Qashqadaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi ilmiy-metodik kengashining 2023-yil 26-iyundagi yig'ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi, hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldir.

© *Qashqadaryo VPYMO'MM, 2023*

Қарши давлат педагогика институти ва Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш инженерлари институти филиалида 1989-1990 уқув йилида 8,7 минг талаба бўлиб, мавжуд 14 та ўрта махсус ўқув юртларида 16,0 минг талаба таҳсил олган<sup>67</sup>.

1990 йилда Қарши давлат педагогика институтида 4300 та кундузги бўлимда, 4000 та сиртки бўлимда талабалар таҳсил олган<sup>68</sup>.

Хулоса қилиб айтганда, вилоятда таълими тизимида “қайта қуриш” йилларида бошқа соҳалардаги бўлгани каби, қатор мкаммолар мавжуд эди. Жумладан, мактабгача таълим муассасига болаларни жалб қилиш талаб даражсида эмас эди, умумий ўрта таълим тизимидаги асосий муаммоларидан бри бу мослаштирилмаган биноларда жойлашган бинолар ва ўқувчи сифими ва кадрлар муаммоси эди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.**

1. ҚВДАнинг Ғузур филиали. 1-жамғарма, 1-рўйхат, 1087-иш.
2. ҚВДАнинг Шаҳрисабз филиали. 316-жамғарма, 1-рўйхат.
3. ҚВДАнинг Қарши филиали. 1-жамғарма, 28-рўйхат, 5
4. Равшанов П. Қашқадарё: истиқлол арафасида 1986-1989 йиллар. Тошкент. “Маънавият”. 2003 й.
5. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. 1917-1937 йиллар. / Маъсул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов. Тошкент: “Ўзбекистон”. 2019 й.
6. Қашқадарё ҳақиқати 1986-1990 йиллар.

### **JAHON TARIXINING AYRIM MUAMMOLARINI O`RGANISHDA MAHALLIY DAVRIY MATBUOT MATERIALLARIDAN FOYDALANISH (XX ASRNING 20-YILLARI MATBUOTI MISOLIDA)**

*Раҳмонов Камол БухДУ Жаҳон тарихи  
кафедраси доценти, т.ф.н.*

О`рта умута`лим мактабларининг X sinfida, akademik litsey va kollejlarda «Jahon tarixi» fanidan 1918-1939 yillarda, ya`ni ikki jahon urushi oralig`ida alohida olingan dunyo mamlakatlarida kechgan ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy- moddiy jarayonlar salmoqli soatlarga mo`ljallangan mavzularda o`rganilgan.

Ayniqsa, G`arb va Sharq mamlakatlarida birinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy va siyosiy ahvol, ayrim mamlakatlarning ichki va tashqi siyosatidagi ziddiyatli holatlar mohiyatini o`quvchilarga yorqinlashtirib berishda o`sha davr davriy matbuoti materiallaridan foydalanish har bir darsning samaradorligini oshiradi. 1920 yillardagi jahon tarixini o`rganishda 1920-1924 yillarda Buxoro Xalq Respublikasida arab imlosida, eski o`zbek adabiyotida har oyda uch-to`rt marta 4-5 ming nusxada chop etilgan «Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro» gazetalarining materiallari qo`shimcha manba sifatida katta yordam beradi. Gazetaning o`nlab sonlarini varaqlar ekanmiz ko`z o`ngimizdagi «Horij mamlakatlarida» «Sharq dunyosi» kabi ruknlar ostida ko`plab xabar va maqolalar,» chop etilganligidan voqif bo`lamiz.

«Buxoro axbori»da e`lon qilingan maqolalarda 1920-yillardagi Evropa siyosati haqida ma`lumot berilar ekan, Versal-Vashington tizimidan (1919-1922 yillar) so`ng sobiq Antanta

<sup>67</sup> Қашқадарё ҳақиқати 1990 йил 2 сентябрь

<sup>68</sup> Қашқадарё ҳақиқати 1990 йил 9 июн

mamlakatlari hisoblangan Angliya – Frantsiya, Frantsiya – Italiya ziddiyatlari, «Turkiya siyosati», «Rossiya masalasi» kabilar haqida munozarali fikrlar beriladi. Jumladan, F.Ho`jaevning «Berlin maktublari» maqolasida: «Frantsiya Olmon puli (reparatsiya to`lovi) bilan quvvatlanib ketmog`idan qurqqan Angliya va Italiya davlatlari har vaqt Frantsiyaning Olmoniyani talamog`iga bo`lishga tirishadurlar. Frantsiya Olmoniyani talamoqqa tirishsa 2 tarafdin Angliya ham yuqoridan siyosat bilan Ovro`pa va Olmoniyani Frantsiyaga raqib qilib yasatmoqqa tilaydur» kabi fikrlar mavjud (F.Ho`jaev Berlin maktublari. Buxoro axbori. 111-son; 1992, 19 noyabr) Yoki, birinchi jahon urushidan mag`lub bo`lib chiqqan Germaniya va Avstriyaning ayanchli ahvoli haqida BHSR noziri: «Antantaning kuchli raqibi sanalgan Avstriya davlati poytaxt «Vena» shahridan iborat bo`lib qolgan. Avstriyadagi pulsizlik, Olmoniyadagi ishsizlik (Olmoniyada 1,5 mln ishsiz odam bor) barchani sarosimaga solgan» deb yozadi. O`qituvchi «1918-1929 yillarda xalqaro ahvol» bilan bog`liq mavzuni o`tayotganda yuqoridagi fikrlarni keltirsa, o`quvchilarda XX asr dastlabki o`n yilliklaridagi siyosati bilan bog`liq tasavvur va tushunchalar kengayadi.

«Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro» gazetalaridan «1918-1929 yilarda Germaniya» mavzusi o`tmishda tarix fani o`qituvchilari boy materiallarni olishlari mumkin. Gazetalarda Germaniyaning ichki va tashqi ahvoli bilan bog`liq «Marka yana tushdi» «Markaning qimmati yanada tushmoqda», «Marka kurslari» «Ish tashladilar» «Germaniyada bolalar och va yalang`ochdur», «Nonning qadog`i 210 mln» «Ko`cha urushlari» «Germaniyadagi ahvol» «Bu kundagi Germaniya» «Qancha kishi ishsiz» «Germaniya qarzlari masalasi» «Germaniyaning urush qarzlari» «Muzokaralar qizib boradi» «Germaniya qo`ymaydur» «Germaniyaning notasi» «G`animlar bilan savdo qiladur» «Rur o`lkasi atrofida» «Rur o`lkasida» «Rur masalasi» «Germaniyada keyinggi holat» kabi yuzlab maqolalar bosilgan. Ushbu maqolalarda Germaniyadagi mislsiz inflyatsiya va iqtisodiy bo`hronlar boy raqam va tafsilotlar orqali bayon qilinadi. Iqtisodiy nochor ahvol haqida «Buxoro axbori»: «17 oktyabrda (1923 yil) xalq Berlindagi bir necha non do`konlarni talashdi. Do`kon egalarining kopchiligi qo`rqib o`z ihtiyorlari bilan non tarqatdilar. Bitta nonning bahosi 450 mln markadan 650 mln markaga chiqdi. Bir AQSH dollari qora bozorda 900 mln marka bilan baholandi. Inflyatsiya shu qadar avj olganki, bir kishi sartaroshga kelib, sochini oldira boshladi. Lekin boshini yarmini olgandan so`ng, sartarosh to`xtab: «Afandim davom qilaymi? Marka kursi yana ko`tarildi. Boshingizni qolgan yarmidagi sochingizni olganim uchun yangi narx to`laysiz» - kabilidagi ma`lumotlarni to`laydi. («Ozod Buxoro» 8 (221) – son, 1923 yil 6 noyabr, 25 (228) – son, 1923 yil 16 dekabr). Yuqoridagi ko`chirmalar o`quvchilar hukmiga havola qilinsa, ularda birinchi jahon urushidan so`ng, Germaniyadagi o`ta og`ir bo`lgan ichki ahvol haqidagi tushunchalar kengayadi. O`qituvchi Germaniya aftoda ahvolidan qisqa vaqtda qutulib Evropa va dunyoda tez fursatda etakchi mamlakatlardan biriga aylanganligini ulardagi xorijdan qarz olish, ilg`or texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilish, ilm – fan rivojiga e`tibor qaratilishi, faol tashqi siyosat yuritilishi kabi omillar bilan izohlaydi.

Germaniyada fashizmning hokimiyat uchun dastlabki urinishlari masalasi ham «Ozod Buxoro» gazetasining 1923 yil 13 noyabrda chop etilgan 13 sonidagi «Germaniyada fashistlar isyoni bostirildi» nomli maqolada bayon qilinadi. Maqoladagi ma`lumotlarga ko`ra Bavariya viloyatining diktatori Kork va prints Rubrrex davrida 1923 yil 9 noyabrda Gitler va uning tarafdorlari harbiy to`ntarish qilish maqsadida majlislar zaliga bostirib kirishgan, o`zaro to`qnashuvda 70 kishi o`ldirilgan. 1923 yil 11 noyabrda Gitler o`z ihtiyori ila asir tushgan. Bu bejiz emasdi, deb yozadi gazeta. Bavariya hukumati avvaldan fashistlarga yordam berib turgan, keyinchalik esa ayrim sabablarga ko`ra, pul berishni to`xtatgan. Bu esa fashistlar isyoniga sabab bo`lgan. Mazkur parchadan

ayon bo`ladiki, Germaniya viloyatlarida fashistlarga hayrhox hukumat a`zolari mavjud bo`lgan. Bu esa fashizmni ma`naviy va moddiy jihatdan quvvatlantirib, hokimiyat uchun kurashga ilhomlantirgan. Turkiyadagi milliy ozodlik harakati ushbu oliy maqsadga erishish yo`lida Mustafo Kamol Otaturk olib borgan kurashlar Turkiya – Angliya, Yunoniston – Turkiya munosabatlari masalalari ham gazetalarda son – sanoqsiz xabar va maqolalarda e`lon qilingan.

«Millat majlisiga kimlar saylandi» «Istambul bo`shatildi» «Turkiya – Pol`sha shartnomasi» «Turkiyada Albaniya Hay`ati» «Turkiyada Yangi Amerika shirkati» «Turkiya urushga qaror bergan» «Turkiya Armaniston munosabatlari» «Kamol poshsho» «Mustafo Kamol Jumxurans» «Mustafa Kamol poshsho va sovet rahbarlari» singari salmoqli maqolalar 1920 yillardagi Turkiya tarixini mukammal o`rganishga yordam beradi. «Buxoro axbori»dagi 1922 yil 28 dekabrda chop etilgan «Inqilobiy Turkiyaga yordam kerak» nomli maqoladan: «Biz Turkiyaning ozodlik yo`lida kurash maydoniga kirib, 200-300 kishilik askariy firqalarda qo`mondonlik qilgan turk xotinlarni ham muxorobada (janda) ko`rdik... Turkiya xalqining bizdan boshqa do`stlari va hayrxoxlari yo`qdur» - deb yozilgan parchani o`quvchilarga o`qib bersa, bu ulardagi vatanparvarlik tuyg`usi, istiqlol ne`mati qadriga yetish istagini kuchaytirish tabiiy.

«Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro» gazetalari materiallaridan 1920 yillarda Afg`oniston, Hindiston, Eron, Yaponiya kabi bir qator Sharq mamlakatlari tarixini o`rganishda ham foydalanish mumkin. Masalan, 1923 yil sentyabr oyida Yaponiyada ro`y bergan dahshatli zilzila va uning salbiy oqibatlarini, jabrlangan yapon xalqiga o`zbekistonliklarning muruvvati haqida «Buxoro axbori» gazetasi 3 ta maqola orqali xabar beradi.

Har bir mavzuni mustaqillik mafkurasini o`quvchilarda shakllantirish talabidan kelib chiqib O`zbekiston tarixi masalalari bilan bog`lab o`tishda davriy matbuot materiallari tarix fani o`qituvchilariga katta nazariy yordam va keng imkoniyat beradi.

Shunday ekan murakkablik va ziddiyatlarga to`la XX asr 20- yillari davri jahon tarixining hanuzgacha «oq dog`» bo`lib kelayotgan sahifalarni to`ldirishda, ayrim muammoli masalalariga aniqlik kiritish va ob`ektiv baxo berishda o`sha davr mahalliy matbuoti manbaviy asoslardan biri bo`la olishiga ishonchimiz komil.

## **STEAM YONDASHUV - TEXNOLOGIK VA KASB TA'LIMI JARAYONIDA PREDMETLARARO ALOQADORLIKNING YUQORI CHO`QQISI SIFATIDA**

*Razzoqov D.N.-Qarshi DU*

*“Texnologik ta’lim” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

### **Annotatsiya**

*Maqolada STEAM yondashuv, uzviy aloqadorlik, predmetlararo aloqadorlik, o‘zaro aloqadorlik, integrativ aloqadorliklarga izohlar va texnologiya o‘quv fanini umumta’lim fanlari bilan aloqadorligini ta’minlash yo‘llari keltirilgan.*

### **Annotatsiya**

*В статье представлены пути обеспечения интеграции интегрированной науки с общеобразовательной наукой, даны комментарии о неразрывной связи, предикативной связи, взаимосвязи, интегративной связи и технологии.*

### **Summary**

*The article presents ways to ensure the integration of integrated science with General education science, comments on the inextricable link, predicative link, relationship, integrative link*

## MUNDARIJA

№	MUALLIF	MAQOLA NOMI	BET
1.	A.S.Mallayev	<i>Kirish so'zi</i>	3
2.	D.P. Komolov	<i>O'zbekiston ssr sud tizimida amalga oshirilgan qatag'onlar</i>	5
3.	M.J.Shodiyeva	<i>Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida kasbiy rivojlanish va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashning ilmiy va metodologik asoslari</i>	8
4.	M.J.Shodiyeva	<i>Hayot davomida o'qish" tamoyili asosida kasbiy rivojlanish va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashning afzalliklari</i>	11
5.	T.Q.Rasulov	<i>"Инсонга эътибор ва сифатли таълим" йили давлат дастурининг мазмун-моҳияти</i>	14
6.	F.X.Sirojiddinova	<i>Rahbar boshqaruvida muloqot madaniyati va ta'sir ko'rsatish omillari</i>	16
7.	Д.Б.Расулова	<i>Ижтимоий фанларни ўқитишида тарихий манбаларнинг ўрни</i>	19
8.	A.N.Raxmonqulov	<i>Musiqa madaniyati fanini o'qitishda innovatsion yondashuv</i>	24
9.	M.Мансуров	<i>Совет иттифоқи йилларида туризмнинг мафкурвий компонентларини фарғона туристик минтақасидаги таҳлили</i>	30
10.	A.Shukurov F.Mavlonova	<i>Dars jarayonlarini tashkil etishda klaster metodini qo'llashning zaruriyati</i>	35
11.	F.X.Sirojiddinova	<i>Rahbar boshqaruvida muloqot madaniyati va ta'sir ko'rsatish omillari</i>	38
12.	K.G.Malikov K. M.Jalilova	<i>Chizmachilik fanida to'garak mashg'ulotlarini umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etish metodikasi shakllantirish</i>	40
13.	A.O'.Shukurov I.B. Jo'rayev	<i>Python dasturlash tilining django muhitida web dastur yaratish</i>	43
14.	K.X.Avazov	<i>Ijtimoiy fanlar va uning jamiyat hayotidagi o'rni</i>	47
15.	D.N.Razzoqov	<i>Texnologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi</i>	50
16.	Ф.Файзуева	<i>XIX asr oxiri – xx asr boshlarida бухоро амирлигидаги рус манзилгоҳларининг тиббий ҳолати таҳлили</i>	54
17.	D.A.Karimova	<i>O'quvchi yoshlarni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi</i>	56
18.	A.Пардаев	<i>"Қайта қуриш" йилларида қашқадарё вилоятида таълими тизими</i>	59
19.	K.Раҳмонов	<i>Jahon tarixining ayrim muammolarini o'rganishda mahalliy davriy matbuot materiallaridan foydalanish (xx asrning 20-yillari matbuoti misolida)</i>	63
20.	D.N.Razzoqov	<i>Steam yondashuv - texnologik va kasb ta'limi jarayonida predmetlararo aloqadorlikning yuqori cho'qqisi sifatida</i>	65
21.	Б.Э.Каримов	<i>Место и роль медиобразования в стабильности общества</i>	69
22.	X.X. Некбоев	<i>Медиатаълимни ташкил этиши ва педагогик фаолиятда касбий-танқидий ёндашувнинг назарий асослари</i>	72
23.	J.N.Po'latov	<i>O'zbekistonda barqaror rivojlanishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati</i>	78
24.	O.T. Ruzimuradov	<i>Bo'lajak pedagog faoliyatiga kreativ yondashuv</i>	81
25.	I.K.Batashev	<i>Bosh prokuratura akademiyasi va undagi islohatlar.</i>	83
26.	I.K.Batashev	<i>Sud hokimiyati mustaqilligining muhim kafolati</i>	85
27.	H.Mallayev	<i>Umumiy o'rta ta'lim rivojlantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'rni va ahamiyati.</i>	88